G‘ofurov Mirzoxid Gulomjonovich
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: gafurovmmm@gmail.com

JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANISHIDA SPORT-TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI HAMDA AHAMIYATI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.10148096

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishida sport-ta’lim muassasalarining o‘rni hamda ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, sport, sport ta’limi muassasalari, jismoniy tarbiya tizimi, bolalar va o‘smirlar sporti

Kirish.

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni vatanparvar, mamlakat taraqqiyotiga dahldor, ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, bu sohadagi mavjud muammolarni ta’lim muassasalarining faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, asosiy vazifalarimizdan biridir.

Davlatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab yurtimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Xususan, “jismoniy tarbiya va sport birinchi darajali vazifalar qatoridan joy oldi” [6]. Jismoniy tarbiya va sport sohasini jadal sur’atlarda rivojlantirish natijasida sportchilarimiz jahon arenalarida yurtimiz bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarib, O‘zbekistonning xalqaro miqyosidagi obro‘sini yanada baland qilishda salmoqli hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Respublikamiz hamda xorijda jismoniy tarbiya va sport ta’lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, olimlarimizdan T.Usmanxodjaev, R.Xalmuxamedov, R.Salamov, Sh.Xankeldiev, F.Kerimov, A.Abdiev, M.S.Axmatovlar sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport muassasalarini rivojlantirib borish muhim deb hisoblashgan.

Xorijlik L.P.Matveev, Yu.V.Verxoshanskiy, M.A.Godik, V.N.Platonovlar jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari doirasida sport zaxiralarini shakllantiirb borish zururligini ta’kidlashgan bo‘lsa, G.Meyzinskaya, V.I.Noviskaya, O.A.Barabash, A.M.Lebedinskiylar4 jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan faydalanildi.

Natijalar va muhokama

Bugungi kunda “jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga” [2] davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda o‘ta muhim vazifalar qatorida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida izchil islohotlar natijasida:

- O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi;
- jismoniy tarbiya va sport yoshlarni sog‘lom va barkamol avlod qilib tarbiyalashga, milliy genafondni sog‘lomlashtirish vositasiga, millionlab

vatandoshlarimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirildi;

- jahon hamjamiyatida ham sport sohasida o'z o'rnimiz va ovozimizga ega bo'ldik. Dunyo O'zbekiston Respublikasi xalqining jismoniy imkoniyatlari, salohiyati, iqtidori beqiyos ekanligini e'tirof etdi;

- sport - dini, millati, irqi, jinsi va yoshidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarini jipslashtiruvchi, yakdil qiluvchi omilga, jamiyatda fuqarolararo va millatlararo totuvlikni, ichki barqarorlikni mustahkamlovchi qudratli kuchga aylandi;

- milliy o'yinlar va sport turlarini tiklashga, ma'naviy hayotni yangilashning, milliy o'zlikni anglash jarayonlarining ajralmas qismi sifatida jiddiy e'tibor berildi.

Hozirda mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalarini muntazam tashkil qilish orqali yoshlarning irodasini, kuchini mustahkamlash, ularda mardlik va vatanparvarlik xususiyatlarini rivojlantirish xamda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralash ishlarini yanada tashkillashtirish, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan isloxotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur harakatlarda barkamol avlodni tarbiyalash asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sifatida rivojlanib borishi, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha ishlarni tashkil qilish zarur ekanligini ko'rsatdi.

Barchamizga ma'lumki ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sog'lom turmush tarziga, kasbiy qobiliyatlarini oshirishga, umrni uzaytirish, talaba-yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularda yuksak vatanparvarlik hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 fevraldagi "Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori jamiyatimizda jismoniy tarbiya va sportni hamda bunda sport ta'lim muassasalarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur qaror asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi sport ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini reyting tizimi asosida baholash tartibi to'g'risida"gi [3] Nizomda quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari sifatida keltirib o'tilgan:

- bolalar va o'smirlar sport maktabi;
- ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi;
- olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi;
- oliy sport mahorati maktabi;
- olimpiya zaxiralari kolleji;
- olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati;
- futbol mahorat maktablari;
- Respublika oliy sport mahorati maktablari;

Bundan tashqari "O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik muassasa hisoblanadi" [8]. Shuningdek, mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojini ta'minlashda alohida o'ringa ega bo'lgan ta'lim muassasalaridan biridir.

Sport ta'lim muassasalarida tarbiyalana-yotgan sportchi yoshlarni yoshligidanoq sport turlarining muammolari, kamchiliklari va sir-asrorlarini egallab, o'z mutaxassisliklarining haqiqiy egalari bo'lib yetishib chiqishini ta'minlash jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vaziflaridan hisoblanadi. Bu borada sport taraqqiyotining bugungi bosqichida biz shunday xususiyatlarni ko'ramizki,

murabbiy bilan sportchi oldiga yangidan-yangi murakkab vazifa va topshiriqlar paydo bo‘lmoqda. Bu vazifa va topshiriqlarni bajarish sport ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlar jarayonini tashkil qilishning yangi usullarini izlab topishga majbur qiladi. Bular:

- sportchilar erishgan yuksak ko‘rsatkichlar darajasini yanada yuksaltirish uchun eng yuqori malakali sportchilar tayyorlash uslubini, shuningdek, sportchilarni tayyorlashda uzoq yillardan beri qo‘llanilib kelinayotgan bugungi tashkiliy-metodik usullarni yanada takomillashtirish;
- eng yirik sport musobaqalarida erishilgan yutuqlarning natijalari tobora oshib borayotgani sababli, sportchilarning texnik hamda amaliy mahoratining samaradorligi, barqarorligi va ustuvorligini ta’minlashda axloqiy, irodaviy va ruhiy tayyorgarliklarini oshirish;
- maxsus jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirish zaxiralarini qidirish va shu bilan birga, mashq jarayoni tizimida yangicha usul hamda uslublarni yaratish;
- mashq yuklamalari hajmining yillik sikl doirasida har bir bosqichiga ratsional yondashuvni takomillashtirish.

Yuqoridagi yondashuvlardan ko‘rishimiz mumkinki, jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi sport ta’lim muassasalari faoliyatining zamonaviy talabalar asosida tashkil qilinishi, ulardagi o‘quv-metodik jarayonning doimo takomillashtirilib borishiga bog‘liq.

Bugungi kunda Respublikamizdagi sport ta’lim muassasalari o‘z faoliyatlarini quyidagi ustuvor yo‘nalishlardan kelib chiqib tashkil etmoqda:

- o‘quvchi-talaba sportchi yoshlarning qiziqishlarini ijtimoiy ahamiyatini inobatga olgan holda o‘quv jarayoni sifatini oshirish;
- jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan shart-sharoitlarni rivojlantirib borish;
- o‘quvchi-talaba sportchi yoshlarga maxsus bilimlarni berish va ushbu asosda jismoniy tarbiya hamda sport mashg‘ulotlariga anglangan ehtiyojni shakllantirib borish;
- o‘quvchi-talaba sportchi yoshlarning boshqa qiziqishlari (kasbga, san’atga va boshqalarga) bilan jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlari o‘rtasida o‘zaro aloqani shakllantirish;
- o‘quvchi-talaba sportchi yoshlarni ta’lim jarayoni hamda sport turlariga taqsimlashda ularning xohishi va moyilligini inobatga olish.

Dunyoda har bir mamlakatning o‘z rivojlanish yo‘li mavjud. Xususan, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasida o‘xshashi yo‘q strategiyasi yaratildi. Uning boshlang‘ich bo‘g‘inlaridan birini – bolalar va o‘smirlar sport maktablari tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 23 sentyabrdagi “Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori [5] BO‘SM faoliyatini tashkil qilishning poydevori bo‘ldi.

Bolalar va o‘smirlar sport maktablari jismoniy tarbiya va sport taraqqiyotini ta’minlashning dastlabki bosqichi hisoblanib, o‘z oldiga quyidagi asosiy vazifalarni qo‘yadi:

- bolalar va o‘smirlarni sog‘lom, har tomonlama jismonan baquvvat qilib tarbiyalash;
- o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy gigiena va birinchi yordam ko‘rsatish haqida hamda nazariy bilim olishini ta’minlash;
- tarbiya jarayonida qobiliyatli bolalarni tanlash va kelajakda ularni maxsus sport maktab-internatlariga jalb qilish va yo‘naltirish;
- maktab o‘quvchilari o‘rtasida jismoniy tarbiya sohasidagi jamoatchilik ishlarini tashkil qilish;
- bolalarni sportga jalb qilish tizim asosida olib borilishini ta’minlash va umumta’lim maktablarida ommaviy sportni rivojlantirishga amaliy yordam ko‘rsatish;
- yoshlarni milliy istiqlol g‘oyasi, milliy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash.

Bundan tashqari "yoshlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini, jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilishga qaratilgan ishlarning samarasini oshirishni bugun davrning o'zi talab etmokda" [7]. Shundan kelib chiqqan holda yosh avlodda hayotiy faollik, axloqiy, insonparvarlikning yuksak g'oyalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportning shakllari, uslub va vositalarini qo'llash ustuvor vazifalardandir. Keyingi 2020-2024 yillarda bosqichma-bosqich quriladigan sport inshootlarida 23 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari hamda yetarli sport inshootlariga ega yana 68 ta bolalar va o'smirlar sport maktablarining filiallari tashkil etilishi ko'zda tutilmoqda. BO'SMning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda tarbiyalanuvchi bolalar va o'smirlar sog'lig'ida tibbiy nuqsonlari va cheklanishlari bo'lmaydi. Ular jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanib, o'qish faoliyati hamda jismoniy tayyorgarlikni amalga oshiradi. Shuningdek, BO'SM tarbiyalanuvchilari jismoniy tarbiya va sport vositalari bilan sog'lig'ini mustahkamlaydi, tanlangan sport turi bo'yicha o'zlarining qobiliyatlarini rivojlantiradi. Keyingi ko'p yillik tayyorgarlik bosqichiga asosiy seleksiya ishlari aynan mana shu yerda amalga oshiriladi. Shuningdek, bu jarayonda jismoniy tarbiya va sport tizimi bilan jamiyat va inson ehtiyojlari o'rtasidagi uzviy aloqalarni ta'minlash – BO'SM o'quv mashg'ulotlari oldida turgan asosiy muammolar hisoblanadi. [9]. BO'SM o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi hamda olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktablari bilan uzviy aloqada bo'ladi. "Ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi hamda olimpiya zaxiralari ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi O'zbekiston Respublikasining va hududlar sport terma jamoalari tarkiblarini to'ldirishga qodir bo'lgan yuqori malakali sportchilarni tayyorlaydi. Bu – maktab faoliyati darajasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi". Bundan ko'rishimiz mumkinki, bunday ketma-ketlikda mantiqiy aloqadorlik mavjud.

Jismoniy tarbiya va sport rivojida oliy sport mahorati maktabining o'rni alohida ahamiyatga ega. Mamlakatimizda bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2438-sonli Qarori [1] huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Oliy sport mahorati maktabi o'z oldiga yuqori maqsad va vaziflarni qo'ygan bo'lib, ularda quyidagi jihatlar aks etgan:

- sport turlari bo'yicha dunyodagi eng yangi ilmiy-metodik tavsiyalar va texnologiyalarni sohada qo'llash;
- sportchilar orasidan respublika terma jamoalariga nomzodlarni yetishtirib berish;
- yosh sportchilarni sport o'yinlari bo'yicha oliy va birinchi ligalarga tanlash va tayyorlash.

Bizningcha, bu mezonlarni yanada takomillashtirish zarur. Chunki, axborot oqimi jadallashuvi natijasida barcha sohalarga yangidan-yangi o'zgarishlar kirib kelishi kuchaydi. Buni quyidagi izohlar bilan asoslaymiz:

2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasining 6-bobida seleksiya, seleksioner trenerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini kuchaytirish yo'li bilan iste'dodli sportchilarni tanlashda sport turlari bo'yicha innovatsion tafakkurli seleksioner trenerlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish ilgari surilgan. O'quv yig'inlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubi ham musobaqalar darajasiga bog'liq bo'lib, bunday yig'inlarda bajariladigan har bitta ish nihoyatda puxta o'ylanishi kerak. Sportchilarni yig'in o'tkaziladigan joyga olib borish, mashg'ulot kunlarining puxta rejalashtirilgan tartibi, dam olish, ovqatlanish tartibi, mashq o'tkaziladigan joylar va hokazo ishlar. Bulardan tashqari, tarbiyaviy ishlar, tibbiy xizmat, ilmiy-metodik ta'minot amalga oshiriladi. Yig'inlar turlicha

yo‘nalishda bo‘lishi mumkin:

- o‘quv-mashq yig‘ini;
- kuch yig‘ish yig‘ini;
- nazorat-tayyorgarlik yig‘ini;
- musobaqa yig‘ini.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, yig‘in bo‘ladigan joylarda sportchi uchun yaxshi sharoit yaratish lozim. O‘quv-yig‘inlarini uyushtiruvchilar boshqa tashkilotlar bilan yaxshi aloqa o‘rnatgan bo‘lishlari zarur. Bu o‘rinda turli xil muvofiqlashtirish xizmatlari mujassamlanadi. Murabbiy, sportchi, shifokor, psixolog, metodist va boshqalar yangi texnik harakatlarni tuzilishi, amaliy murakkab mashg‘ulotlarga funksional tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik kabi masalalarni birgalikda hal qiladilar, ya’ni sportchilar kelgusi yilning modelini tuzadilar. Hozirgi paytda ana shu mutaxassislarni tayyorlash va ular o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish masalasi ham ijobiy hal etilishi shart.

Sport ta’lim muassasalarini bunday mutaxassislar bilan ta’minlash uchun muntazam ravishda yangi kadrlar tayyorlash va kadrlarni qayta tayyorlash ishlarini olib borish kerak. Shuningdek, oliy sport mahorati maktablari murabbiylarning malakasini oshiruvchi bir yillik kurslarni tashkil qilish, murabbiylar uchun ilmiy va metodik konferensiyalar o‘tkazish, oliy darajadagi mutaxassislarni taklif qilish yo‘li bilan murabbiylar tajriba almashishini uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tarbiya va sportning taraqqiyotida Olimpiya zaxiralari kollejlari faoliyatini ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 12 avgustdagi “Olimpiya zaxiralari kollejlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 480-sonli Qarori [4] Olimpiya zaxiralari kollejlari faoliyatini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Olimpiya zaxiralari kollejlari Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga bo‘ysunadigan o‘rta professional davlat sport-ta’lim muassasasi hisoblanib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislar hamda sportning olimpiya turlari bo‘yicha terma jamoalarni shakllantirish uchun sport zaxirasini tayyorlashga yo‘naltirilgandir. Bu kollejlar o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- bolalar-o‘smirlar sport maktablari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktablari, sport klublari yoki boshqa sport-ta’lim muassasalarida sport tayyorgarligi o‘quv-mashq bosqichining birinchi yil tayyorgarligidan o‘tgan hamda sport bilan shug‘ullanishga iqtidori bo‘lgan, olimpiya zaxiralari kollejida o‘qish istagini bildirgan o‘quvchilar o‘rtasida tanlov asosida olimpiya zaxiralari kollejida o‘qishni davom ettirish uchun tanlab olish;
- respublika va xalqaro musobaqalarda qatnashish uchun sport zaxirasini terma jamoalar tarkibiga tayyorlash;
- o‘quvchilarning respublika va xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishi uchun zarur va yetarli bo‘lgan kasbiy moyilligini, mahorati va ko‘nikmalari chuqur rivojlantirilishini ta’minlash, sport tayyorgarligi ta’limining navbatdagi bosqichlarida o‘qishini, shuningdek egallangan mutaxassislik bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishni davom ettirish;
- mutaxassislar va sport zaxirasini sifatli tayyorlash uchun zarur tashkiliy, o‘quv-metodik, psixologik-pedagogik, tibbiy-biologik va moddiy-texnik shart-sharoitlarni ta’minlash;
- o‘quv-tarbiya jarayonining sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishini amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash, sog‘lom turmush tarzi normalarini joriy etish.

Bu vaziflar o‘z navbatida olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, futbol mahorat maktablari, Respublika oliy sport mahorati maktablarining maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti jismoniy tarbiya va sport sohasida mavjud ta’lim muassasalari uchun tayanch hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport tizimidagi sport ta’lim muassasalarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun “Reyting tizimi asosida baholash tartibi

to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Unga ko‘ra endilikda jismoniy tarbiya va sport tizimidagi sport-ta’lim muassasalarining faoliyatlari quyidagilar reyting mezonlari asosida baholanadi:

- olimpiya sport turlari bo‘yicha shug‘ullanuvchilar sonini oshirish natijasida olimpiya sport turini rivojlantirish;
- sport razryadlari va unvonlariga ega bo‘lgan sportchilar sonini oshirish natijasida sifatli va iqtidorli sportchilarni tanlash, tayyorlash, seleksiya qilish (saralash) ishlarini tashkil qilish;
- faoliyat yuritayotgan trenerlar, metodistlar, shifokorlarning salohiyatini oshirishga erishish;
- metodistlar tomonidan o‘quv va metodik ishlanmalar sifati sonini oshirish;
- sport-ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish;
- sport-ta’lim muassasalarining boshqa ta’lim muassasalari bilan hamkorligini oshirishga erishish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojida sport ta’lim muassasalari asosiy lokomativ vazifasini bajaradi. Ularning faoliyatlarini quyidagi mezonlar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

- birinchidan, sport ta’lim muassasalari orasida integratsion jarayonlarni kuchaytirish;
- ikkinchidan, sport ta’lim muassasalari o‘quv-metodik bazasini mustahkamlash;
- uchinchidan, sport ta’lim muassasalari o‘qituvchi-murabbiylarining pedagogik kompetentlik xususiyatlarini yanada oshirish;
- to‘rtinchidan, sport ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari orasida seleksiya ishlarini amalga oshirishda xorijiy tajribadan foydalanish metodikasini joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 23 ноябрдаги “Олий маҳорат спорт мактабларини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-2438-сон қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш тўғрисида”ги ПҚ-3031-сонли қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 17 февралдаги “Спорт-таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 90-сонли қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 12 августдаги “Олимпия захиралари коллежлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 480-сонли қарори
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2010 йил 23 сентябрдаги “Спорт мактаблари фаолиятини ҳамда спорт мактаблари тренерлари ва мутахассислари меҳнатини моддий рағбатлантириш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” 211-сонли қарори.
6. Каримов И.А.Юксак маънавият - енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008.-Б.176.
7. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.1-жилд.-Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.-592 б.
8. Арзиқулов Д.Н. Спорт-педагогик фаолият қобилиятларини ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик шартлари. Монография – Т.: Илм зиё заковат, 2020. – 200 б.
9. Назаров Н.Н. Спорт ва соғлом ҳаёт фалсафаси. Монография.-Т.: Замон полиграф, 2020. – 234 б.